



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***HISTORICAL WORKS AND THEIR STUDY: RESEARCH CONDUCTED BY NATIONAL SCHOLARS****Makhmudov Mansurjon,**

Department of Social Sciences "University of Business and Science"

Doctor of Philosophy (PhD) in History

Abstract. The article reflects the attitude of the intelligentsia to the historical and cultural heritage. The attitude to the culture of the past has become more modest. At the same time, thanks to the efforts of the enlightened intelligentsia and the ascetics of science, the work on the preservation and study of the historical and cultural heritage of the country continued. In particular, our national intelligentsia pays great attention to the study of our historical and cultural heritage, especially historical science.

Keywords: Center (Uz Akcenter) Press, History Science, Spiritual Heritage, Culture, Science, History of Turkestan, Abdu'mumin Sattoriy, Khoji Muin Shukrullayev, Gazi Olim Yunusov, Abdumusaev Odilov, Abdulhamid Sulaymon o'g'li (Chulpon), Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, and Sadriddin Ayni.

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR**Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich,**

“University of Business and Science” Ijtimoiy fanlar kafedrasи

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: Maxmudovmansur144@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ziyolilarning tarixiy va madaniy merosga bo'lgan munosabati o'zining aksini topgan. O'tmish madaniyatiga nisbatan kamtarona munosabat kuchaygan. Shu bilan birga, ma'rifatparvar ziyolilar va fanning fidoiylarining sa'y-harakatlari natijasida mamlakatda tarixiy va madaniy merosni saqlash va o'rganish ishlari davom ettirildi. Ayniqsa, milliy ziyolilarimiz tomonidan tarixiy va madaniy merosimizni, ayniqsa tarix fanini o'rganishga katta e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Markaz (Uz Aksentr) matbuot, tarix fani, ma'naviy meros, madaniyat, fan, Turkiston tarixi, Abdumo'min Sattoriy, Hoji Mu'in Shukrullayev, G'ozi Olim Yunusov, Abdumusavvar Odilov, Abdulhamid Sulaymon o'g'li (Cho'lpon), Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud va Sadriddin Ayni.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N01>

Kirish. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Sovet hokimiyati uchun siyosiy va iqtisodiy mavqe yanada mustahkamlandi. Bolsheviklar hokimiyatga kelganidan keyin, mutlaq yakkahokim partiya jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalariga fuqarolarning ongini o'zgartirish maqsadida kuchli mo'ysaflikni kiritdi. Ayniqsa, bu davrda ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolani yozishda O'zbekiston Milliy arxivining R-34-fondidagi materiallardan foydalanilgan. Bundan tashqari, mavzuga oid bo'lgan “Maorif va

o'qitg'uvchi"[1. B.76-78] jurnalida jadidlarimiz tomonidan til masalasiga oid ko'plab ma'lumotlar berilgan. "O'zbekiston tarixi (1917–1991 yy). Ikkinci kitob"[4. B.218], esa sovetlar tomonidan yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish va eski milliy ziyolilarni yo'q qilish, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun urinishlar to'g'risida atroficha tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. "Ma'naviy meros asarlarimiz milliy ziyolilarmiz nigohida" nomli mazkur tadqiqotni yoritishda xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, tizimlilik tamoyili asosida ish ko'rilib, qiyosiy tahlil usullaridan bevosita foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish, eski mavjud milliy ziyolilarni yo'q qilish ushbu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi. Bunday yondashuv tarixiy-madaniy merosga bo'lgan munosabatda ham o'z aksini topdi. O'tmish madaniyatga nisbatan panja ostidan qarash kuchaydi. Shunga qaramasdan, ma'rifatparvar ziyolilar va fan fidoyilarining sa'y-harakatlari natijasida o'lkada tarixiy-madaniy merosni saqlash hamda o'rganish ishlari davom ettirildi.

Sovet hokimiyatining ilk yillarda madaniyat va uni boshqarish sohasida biroz erkinlik mavjud edi. Hokimiyat mahalliy urf-odatlar va madaniy xususiyatlarni hisobga olishga majbur bo'lsada, keyinchalik ma'muriy-buyruqbozlik usullari keng tarqalib, qattiq kuchlandi. Bu davrda bolsheviklar tomonidan "madaniy inqilob" yo'li ustuvor bo'lib, u aholining olamiga yongina va tahdid soluvchi qadamlar tashlandi. Xalqning ma'rifat, fan va milliy ma'naviyatga bo'lgan intilishiga qarshi, hokimiyat faqat siyosiy manfaatlar yoniga burilishga urindi. Shuningdek, yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish va eski milliy ziyolilarni yo'q qilish, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun urinishlar qilindi[4; B.218.].

Shuningdek, tarixiy-madaniy merosga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Sovet hokimiyatining avvalgi siyosiy yo'naliishlariga qaramay, tarix va madaniyatga nisbatan yengil-kundalik fikrlar shakllandi. O'tmish madaniyatiga nisbatan salbiy qarashlar kuchaydi. Lekin, shu bilan birga, ma'rifiy va ilmiy faoliyatning har xil yo'naliishlaridagi ziyolilar va faollar o'z harakatlari bilan tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda o'rganish ishlarini davom ettirishga intilishdi. Turkistonda milliy davlat chegaralashganidan keyin, ya'ni 1924-yilda O'zbekiston Xalq maorifi komissarligi huzurida Akademik Markaz (UzAkademtsentr) tashkil etildi. Ushbu markaz ilmiy-pedagogik, musiqiy etnografiya, o'zbekshunoslik, ilmiy tashkilot va jamiyatlar kabi bo'limlardan iborat bo'ldi. Akademik Markazning tashkil etilishi o'lkadagi madaniy va ma'rifiy ishlarni tartibga solish, uni yangilash va chuqr o'rganish maqsadida muhim qadam bo'ldi[5; B.110-111.].

Shuningdek, tarixiy-madaniy merosga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Sovet hokimiyatining avvalgi siyosiy yo'naliishlariga qaramay, tarix va madaniyatga nisbatan yengil-kundalik fikrlar shakllandi. O'tmish madaniyatiga nisbatan salbiy qarashlar kuchaydi. Lekin, shu bilan birga, ma'rifiy va ilmiy faoliyatning har xil yo'naliishlaridagi ziyolilar va faollar o'z harakatlari bilan tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda o'rganish ishlarini davom ettirishga intilishdi. Turkistonda milliy davlat chegaralashganidan keyin, ya'ni 1924-yilda O'zbekiston Xalq maorifi komissarligi huzurida Akademik Markaz (UzAkademtsentr) tashkil etildi. Ushbu markaz ilmiy-pedagogik, musiqiy etnografiya, o'zbekshunoslik, ilmiy tashkilot va jamiyatlar kabi bo'limlardan iborat bo'ldi. Akademik Markazning tashkil etilishi o'lkadagi madaniy va ma'rifiy ishlarni tartibga solish, uni yangilash va chuqr o'rganish maqsadida muhim qadam bo'ldi[7; B.110-111.].

O'zbek Akademik markazining shtatdan tashqari xodimlari ro'yxatidan o'zbek xalqining eng ko'zga ko'ringan milliy ziyyolilari o'rinni olgan. Ushbu ziyyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda muhim o'rinni tutadigan shaxslar bo'lib, ularning faoliyati va ilmiy-ijodiy ishlari mamlakatning rivoji va madaniy merosini saqlashga katta hissa qo'shdi. Ro'yxatdagi ayrim mashhur nomlar shular:

- Abdumo'min Sattoriy
- Hoji Mu'in Shukrullayev
- G'ozi Olim Yunusov
- Abdumusavvar Odilov
- Abdulhamid Suloymon o'g'li (Cho'lpon)
- Abdurauf Fitrat
- Vadud Mahmud
- Sadriddin Ayniy

Bu ziyyolilar nafaqat o'zbek milliy madaniyati va adabiyotining yo'lboshchilari, balki ularning ilmiy ishlari va ijodiy faoliyati ham davlatning ma'rifiy taraqqiyotiga muhim ahamiyat kasb etdi[6. B.65-69.].

Ushbu ziyyolilar olib borgan ilmiy-amaliy harakatlar tufayli Markaz ko'plab ijobjiy ishlarga erishdi. Xususan, ilmiy-pedagogik bo'lim turli xildagi o'quv yurtlari uchun yangi o'quv rejalarini va dasturlarni ishlab chiqish, ularga darsliklar tuzish, O'zbekistonda chop etilgan darslik hamda metodik adabiyotlarni nazorat qilish kabi muhim vazifalarni bajardi. O'zbekshunoslik bo'limi esa mahalliy xalqning o'tmishi, tili va turmush tarzini har tomonlama o'rganish bo'yicha katta tadqiqotlar olib bordi. Bu bo'lim o'zining boshlang'ich tashkilotlarini tuzib, ularning ishini muvofiqlashtirishni ham amalga oshirdi. Shuningdek, O'zbekistonda mahalliy tilda chop etilgan barcha materiallarni til bo'yicha taqriz qilish bilan ham shug'ullandi.

Markazning ilmiy faoliyati mamlakatdagi bilim olish jarayonini yangilash va lokal til va madaniyatni chuqur o'rganish uchun katta hissa qo'shdi. Ushbu tadqiqotlar milliy madaniyat va ilm-fanning rivoji uchun asosiy omil bo'lib xizmat qildi[7. B.110-111.].

Ilmiy tashkilot va jamiyatlar bo'limi Toshkentdagi davlat kutubxonasi hamda o'zbek san'ati va tarixi yodgorliklarini qo'riqlash qo'mitalari bilan bevosita ish olib bordi. Bu bo'lim O'zbekiston hududidagi barcha ilmiy tashkilotlar va jamiyatlarning ilmiy tadqiqot ishlarini g'oyaviy jihatdan boshqarib borgan. 1925-yil 6-dekabrda Akademmarkaz kollegiyasining qarori bilan Samarqandda Sharq qo'lyozmalariga maxsus saqlash joylarini tashkil etish ishlari ham boshlandi. Akademmarkaz o'sha davrda madaniy va tarixi-sharqshunoslik yo'naliшining rivojiga samarali hissa qo'shgan muassasa deb e'tirof etilgan.

Shuningdek, milliy ziyyolilarning zimmasida adabiy merosni zamonasining ma'naviy mulkiga aylantirish, o'tmishdagi buyuk siymolarni elga tanitish va ularning asarlarini ko'p nusxada qayta nashr etish kabi mas'uliyatli, murakkab vazifalar turar edi. Bu tadqiqotning dastlabki bosqichida, 20-yillarning oxiriga kelib, matbuotda millatning mashhur siymolarini yorituvchi ko'plab maqolalar chop etildi. Ammo, 20-yillar oxiriga kelib, mumtoz merosimizga markschalik-leninchilik ta'limot asosida tanqidiy qarash keng yoyildi. Ma'naviy meros oq-qora, yaxshi-yomon, foydali-foydasiz kabi ranglar va turlarga ajratilgan. Sovet madaniyati nazariyasida madaniy merosdan foydalanish va uni zamonga moslashtirish haqidagi fikrlar keng tarqala boshladi. Bolsheviklar partiyasining faollaridan biri I.A. Zelenskiy shu haqda shunday degan edi: "Eski madaniyat ikki qismdan iborat: moddiy qismdan, biz o'zlashtirgan

ishlab chiqarish apparatidan xo'jalik va texnik asos (bazis)ga bevosita yo'ldosh bo'lgan aniq fanlar, g'oyaviy qismlar, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti darajasidagina emas, balki ishlab chiqarish kuchlari va qurollari taqsimotidan kelib chiqqan (qurollar va vositalarga xususiy egalik) g'oyaviy qismidan iborat. Madaniyatning aynan shu qismini, ya'ni mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalarga xususiy egalik faktidan kelib chiqqan qismini biz uloqtirib tashlashimiz zarur”[2; B.12-13.].

Shunga qaramay, milliy ziyolilarimiz tomonidan tarix ilmi targ'iboti va o'tmish madaniy merosini xalqqa yetkazish borasidagi harakatlar to'xtab qolmadı. Shu o'rinda, XX asrning 20–30-yillarida mashhur bo'lgan O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissariyoti nashriyot organi bo'lgan – “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalı bu borada eng faol nashrlardan biri bo'lganini ta'kidlash kerak. Mazkur jurnal sahifalarida milliy ziyolilarining tarix, adabiyotshunoslik, etnografik, qadamshunoslik va boshqa yo'naliшlardagi tadqiqotlari chop etilgan.

XX asrning 20-yillarining ikkinchi yarmida boshlab, milliy ziyolilarimiz tarix va mumtoz adabiyotga oid qarashlarini so'zlaganida avvalo Abdurauf Fitrat nomini alohida ta'kidlash o'rinci. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, Abdurauf Fitrat ulkan sharqshunoslik olimi edi. U arab, fors, mojul, usmonli turk va qadimgi turk tillarini mukammal bilibgina qolmay, bu xalqlar tarixi, madaniyati, adabiyoti hamda san'atni juda chuqur o'rgangan, o'rtasrlar islom ta'rixini va adabiyotini mukammal biladi. “Maorif va o'qitguchi” jurnalı 1926-yildagi 7–8-sonlarida “Adabiy taftishlar” ruknida “Muqaddomat ul-adab” nomi bilan olimning maqolasi berilgan. Mahmud Zamashariyning ilmiy merosi bo'yicha tadqiqot olib borgan Z. Ismomov ushbu maqolani “yurtimizdagı Mahmud Zamashariy va uning 'Muqaddomat ul-adab' asariga bag'ishlangan ilk tadqiqot deb hisoblash mumkin”, deb qayd etadi. Unda Abdurauf Fitrat haqiqiy keng qamrovli olim ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, “Muqaddomat ul-adab” asari barcha tadqiqotlar qatori o'z nomi bilan emas, balki asar muqaddimasida ko'rsatilganidek, “Lug'ati Xorazmshohiy” deb atalganligini ta'kidlaydi[1; B.76-78]. Abdurauf Fitrat asar bilan yaqindan tanishib chiqadi, ism va fe'llar qismlariga kiritilgan arabcha va boshqa tillardagi so'zlikka alohida e'tibor beradi. Buning uchun olim Buxorodagi Ibn Sino kutubxonasida saqlangan asarning qadimiyligi ikki qo'lyozmasi bilan yaqindan tanishadi.

Ulardan biri hijriy 705/1305-yili Hamid Hofiz nomli kotib tomonidan ko'chirilgan asarning to'liq qo'lyozmasi edi. Undagi lug'at qismiga arabiy-forsiy tillardagi modullar (ekvivalentlari — dissertation) kiritilgan. Abdurauf Fitrat maqolada yozgan ikkinchi qo'lyozma 898/1492-yili kotib Darvish Muhammad tomonidan ko'chirilgan. Uning hoshiyasidagi muhrga qaraganda, qo'lyozma o'zbek xonlaridan Abdullahon IIning beklaridan bo'lmish Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan 977/1569-yilda kutubxonaga vaqf qilib topshirilgan.

Abdurauf Fitrat qo'lyozmani “chig'atoycha” deb nomlaydi va uni Alisher Navoiy yoki undan ilgari davrga mansub bo'lsa kerak, degan fikrni ilgari suradi. Maqola davomida muallif shamol, girdub, yer, tuproq, tog', suv, olov kabi so'zlarning turkiy (o'zbekcha) va mo'g'ulcha shakllarini taqqoslaydi. Maqola oxirida Abdurauf Fitrat turkiy, mo'g'uliy so'zlarga sanoq sonlar, jumladan, birlik va o'nlik sonlarini biri-biriga qiyoslaydi. Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy ijodiga ham o'z e'tiborini qaratadi. Uning “Ahmad Yassaviy” va “Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar” sarlavhali maqolalari 1927-yilda “Ma'rifat va o'qituvchi” jurnalining sahifalarida chop etildi. Unda muallif Ahmad Yassaviy yashagan muhit va mafkurani tahlil qilishga harakat qiladi, uning asarlarining tub mohiyatini ochishga intiladi va o'zining ilmiy xulosalarini bildirishga uringan. Abdurauf Fitrat: “Bu kitobdagi chiqatoy lug'atlarining

Navoiylar zamonidan, yo undan burungi zamonlardan qolgan bir manba bo'lg'ini uchun bizga yararli ekaniga shubha yo'qdir", deb qayd etadi. Ahmad Yassaviy haqidagi maqolasida esa "Devoni hikmat" asarining nusxalari keyingi davrlarda yozilgan, uning shogirdlari tomonidan ushbu hikmatlarga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lishi mumkinligini ishora qilib: "Devoni hikmat"ning Yassaviy zamoniga yaqin bir zamonda yozilgan biror nusxasi topilmaguncha ma'lum. "Devoni hikmat"larni til tarixi qarashidan tekshirishdan ilmiy bir natija chiqmaydi", deydi. Ushbu ikki maqola olimning bir nechta yillik izlanishlari natijasidir.

Abdurauf Fitrat tasavvuf ta'limoti va uning o'tmishi, shoir yashagan davr, ijtimoiy-ma'naviy muhit, ulug' mutafakkirning hayot sahifalari, oilasi, bolaligi, ilm ta'limi, o'z tartibiga asos solishi, "Devoni hikmat" ta'rixi, hikmatlarning ma'no-mohiyati, adabiy qimmati, yassaviylikning ta'siri, mafkurasi, Ahmad Yassaviyda tasavvuf darajasi kabi masalalarni chuqr o'rganib chiqqan va ular xususida yangi fikr-mulohazalarini bayon etgan. O'z maqolasini tasavvufga doir umumiyo kirish bilan boshlagan ekan, olim tasavvuf masalaning yuzaga kelishini mustamlakachilarning mahkumlarga qilganadolatsizliklaridan kelib chiqqan aks ta'siri bilan bog'laydi. Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy hikmatlarining turkiy til rivojidagi xizmatlari xususida mulohaza yuritib, V-VI asrdagi adabiy mahsul bo'lgan hikmatlar, xususan "Qutadg'u bilig" asari bilan bir vaqtda yozilgan "Hibat ul-haqoqiyq" asarini adibiyotimiz va tariximiz uchun muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Abdurauf Fitratning fikricha, ushbu davrda yozilgan turkiy asarlar kamli, ularning qimmati yanada ortiq qo'shishini ta'minlaydi. Shuningdek, Fitrat XX asrgacha yetib kelgan "Devoni hikmat" nusxalarining qadimi emasligini ta'kidlab, ushbu asarlarning til va mazmunidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

"Ma'rifat va o'qituvchi" jurnalining sahifalarida birinchi bo'lib o'zbek xalqining shakllanish tarixi masalasini ko'targan olimi Miyon Buzruk Solioxov hisoblanadi. Uning "O'zbek tarixiga doir to'rt muhim kitob" maqolasidagi fikrlar hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Unda "Mehmonnomai Buxoro", "Zafarnoma", "Firdavs ul-iqbol", "Tarixi Farg'ona" kabi asarlar tavsiflanib, ularning mazmuni ilmiy bayon etilgan. Miyon Buzruk Solioxov 1925-yildan boshlab Istanbulda O'rta Osiyoning o'rta asrlar tarixiga doir qo'lyozma asarlarni o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. U Istanbuldagi mashhur Nuri Usmoniy kutubxonasida Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomai Buxoro" qo'lyozma asarini topishga muvaffaq bo'ldi. Kutubxona shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiyning turkiyga tarjima qilingan "Zafarnoma" asari bilan tanishgan. Universitet kutubxonasida Muhammad Rizo Ogahiyning "Firdavsl-iqbol" asari ustidan tadqiqot olib borgan. Xolis Afandi xususiy kutubxonasida esa "Tarixi Farg'ona" qo'lyozma asarini topishga muvaffaq bo'lgan. Miyon Buzruk Solioxoning ishlari O'rta Osiyo tarixining turkiy tildagi muhim manbalariga oid ilmiy tadqiqotlarga katta hissa qo'shgan va uning kitoblaridagi ma'lumotlar o'zbek xalqining tarixiy va adabiy merosini aniqlashga yordam bergan.

Miyon Buzruk Solihov o'zining ilmiy tadqiqotlarida, ayniqsa, "Mehmonnomai Buxoro" asarini o'z zamonidagi eng ishonchli va mufassal manba sifatida baholaydi. U bu kitobning ma'lumotlarining zamon va mahallalari to'g'risidagi aniqligi va haqiqatga yaqinligiga alohida e'tibor qaratgan va ushbu asarning o'zbek tarixi uchun katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan. Miyon Buzruk Solihovning fikricha, "Mehmonnomai" asari o'zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini o'rganishda muhim yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Uning "Zafarnoma" asari haqidagi fikrlari ham ahamiyatlidir. Ushbu asarning XV-XVI asrlarda o'zbek yozuvi va tilidagi o'zgarishlarni jonli va aniq ko'rsatishi unga qimmat baho berilishini taqozo

qiladi. Bundan tashqari, “Zafarnoma”ning o’zbekchalishtirilishi va uning turkiy tildagi aniqlari o’sha davrning ijtimoiy va siyosiy muhitini chuqurroq tushunishga yordam beradi[3; B.57-61.].

Shuningdek, Munis Xorazmiyning “Firdavsul-iqbol” asari haqida gapirar ekan, Miyon Buzruk Solihov undagi bir qator manbaalarning o’rnini va ularning xilma-xilligini yoritib, ushbu asarlardan foydalanishning murakkabligi haqida ham aniq fikrlar bildirgan. Uning fikricha, “Firdavsul-iqbol”, Ogahiyning “Riyoz ul-davla” va “Zubdat at-tavorix” asarlari ham Turkiyaga kelib qo’ylgani va ularning nusxalari haqida ham muhim ma'lumotlar taqdim etgan. Shuningdek, Farg’ona tarixi va uning Turkiyaga kelib qo’ylishi haqida gapirar ekan, Miyon Buzruk Solihov uning tarjima qilinganligi va buning o’zbek tarixini o’rganishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ushbu manbalardan foydalanish bilan o’zbek xalqi tarixini yanada chuqurroq o’rganish mumkin.

XX asrning 20-30-yillaridagi siyosiy muhitning ta’siriga kerakli e’tibor qaratilib, milliylik va an’anaviylikning yomonlashgani, shuningdek, “xalq dushmani” sifatida ayblangan va mahv etilgan ziyolilar haqidagi tuzilishi, ularning ijodiy va fuqarolik mavqeyiga ta’siri haqida ham nazarlar bildirilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдурауф Фитрат. Муқаддамут ул-адаб // Маориф ва ўқитғувчи. – 1926. – №7–8.
2. Зеленский И. В. Борьбе за культуру // За партию. – 1928. – №7.
3. Миён Бузрук. Ўзбек тарихига доир тўрт муҳим китоб // Маориф ва ўқитғувчи. – 1927. – №9–10.
4. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб.
5. ЎзМА, Р-34-фонд, 1-рўйхат, 2629-иш.
6. ЎзМА. Р-34-фонд, 1-рўйхат, 2629-иш.
7. ЎзМА. Р-34-фонд, 1-рўйхат, 2629-иш.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).